



THE COMMITTEE FOR UZBEK STUDIES AND ITS CONTRIBUTION TO THE DEVELOPMENT OF HISTORICAL KNOWLEDGE

Salimakhon Madyarova

Associate Professor, Candidate of Historical Sciences

Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: UzSSR, national demarcations, Academic Center, Central Bureau of Local History, Committee of Uzbek Studies, scientific institutions, historical knowledge, Central Asian Research Institute, Faculty of Social Sciences.

Received: 03.02.25

Accepted: 05.02.25

Published: 07.02.25

Abstract: This article examines issues related to the creation of the Committee of Uzbek Studies, formed on the basis of the Uzbek Scientific Commission. Its activities and contribution to the development and popularization of historical scientific knowledge in Uzbekistan are covered in detail. Based on a large analysis of periodicals, archival documents and scientific literature, the mechanism used by the Soviet government to organize science, the influence of socio-political trends on the scientific environment in the Republic of Uzbekistan is revealed, and the achievements and shortcomings of the Committee of Uzbek Studies in the period 1924-1928 are shown.

O'ZBEKSHUNOSLIK QO'MITASI VA UNING TARIXIY BILIMLAR RIVOJIGA QO'SHGAN XISSASI

Salimaxon Madyarova

dotsenti, tarix fanlari nomzodi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: O'zSSR, milliy chegaralanish, Akadem(ik)markaz, Markaziy O'lkashunoslik Byurosi, O'zbekshunoslik qo'mitasi, ilmiy muassasalar, tarixiy bilimlar,

Annotatsiya: Maqolada O'zbek milliy–ilmiy komissiyasi negizida vujudga keltirilgan O'zbekshunoslik qo'mitasining vujudga kelishi, faoliyati, uning O'zbekiston

O'рта Osiyo ilmiy-tadqiqot instituti, Ijtimoiy fanlar bo'limi.

tarixiy-ilmiy bilimlar rivojiga qo'shgan xissasi xususida so'z yuritiladi. Shuningdek, respublikadagi davriy nashrlar, arxiv hujjatlari va ilmiy adabiyotlar tahlili asosida sovet hukumatining fanni tashkillashtirish borasidagi chora-tadbirlari, ijtimoiy-siyosiy jaranlarning respublikadagi ilmiy muhitga ta'siri, O'zbekshunoslik qo'mitasining 1924-1928 yillar davomida qo'lga kiritgan yutuqlari va mavjud kamchiliklar umumlashtirib, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti tarixining muhim bosqichlardan biri bo'lganligi ko'rsatib beriladi.

КОМИТЕТ ПО УЗБЕКИСТИКЕ И ЕГО ВКЛАД В РАЗВИТИЕ ИСТОРИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ

Салимахон Мадьярова

Доцент, кандидат исторических наук

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: УзССР, национальные размежевания, Академический центр, Центральное бюро краеведения, Комитет Узбековедения, научные учреждения, исторические знания, Среднеазиатский научно-исследовательский институт, Факультет общественных наук.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы, связанные с созданием Комитета узбековедения, сформированного на базе Узбекской научной комиссии. Подробно освещается его деятельность и вклад в развитие и популяризации исторических научных знаний в Узбекистане. На основе большого анализа периодических изданий, архивных документов и научной литературы раскрывается механизм, используемый Советским правительством по организации науки, влиянию общественно-политических течений на научную среду в республике Узбекистан, а также показываются достижения и недостатки Комитета узбековедения в период 1924-1928 годов.

KIRISH(INTRODUCTION)

Sovet hukumatining XX asrning 20-30 yillarda qishloq xo'jaligini jamoalashtirish, fan va ta'lim, sanoat o'zgarishlari, madaniy inqilob, sotsialistik mafkurani shakllantirish va mustahkamlash bilan bog'liq amalga oshirgan chora-tadbirlari bevosita Turkiston ilmiy muhitiga ham ta'sir ko'rsatdi. 20-yillarning o'rtalariga qadar bu soha institutsional o'zgarishlar, sovet kadrlari yetishtirish, ilmiy-tadqiqot ishlarining yo'nalishi va g'oyaviy mazmuni tubdan o'zgartirishga kirishildi.

1924 yilda O'rta Osiyo milliy chegaralanishi o'tkazilishi munosabat bilan respublikadagi ilmiy tadqiqot ishlari O'zSSR Akademik markazi (O'zakademmarkaz)ni qoshida muvofiqlashtirib borildi. O'zakadem(ik)markaz zimmasiga birinchi navbatda Xalq maorifi komissarligi faoliyatini ilmiy asoslash, respublika hududidagi ilmiy muassasa va jamiyatlarni nozirlik atrofida birlashtirish va amalga oshiriladigan ishlarini rejalashtirish vazifalari yuklatildi. Akademmarkaz dastlab uchta: "Ilmiy-pedagogik" bo'limi, Musiqa-etnografik komissiyasi bilan birga bo'lgan "O'zbekshunoslik qo'mitasi" hamda "Ilmiy muassasa va jamiyatlar" bo'limlaridan tashkil topgan. Lekin nima uchundir sovet davri tadqiqotchilaridan biri – B. Jabborov o'zining 1974 yilda himoya qilgan nomzodlik ishida O'zbekshunoslik qo'mitasi tashkil etilgan joyini Samarqand, vujudga kelgan yilini esa 1926 yil deb ko'rsatib o'tadi.

O'zbekshunoslik qo'mitasi milliy chegaralanishga qadar Turkiston maorif nozirligi qoshida faoliyat yuritgan O'zbek milliy ilmiy komissiyasi negizida vujudga keltirildi. Uch yil davomida Akademmarkaz xodimi bo'lgan, avval ilmiy-pedagogik komissiya a'zosi, keyin O'zakademmarkazning ilmiy kotibi lavozimida ishlagan K.K. Yudaxin ham "O'zbek ilmiy komissiyasini O'zbekshunoslik qo'mitasidan avval faoliyat yuritgan va uning o'tmishdoshi bo'lgani, Buxoro va Farg'onaning turli shaharlaridagi o'z xodimlariga ega bo'lganligini" yozadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI (LITERATURE REVIEW)

O'zbek ilmiy komissiyasi faoliyatining tugatilishi va uning o'rnida O'zbekshunoslik qo'mitasini tashkil etilishini O'sha davr kishilaridan biri Said Ahmad Nazir o'g'li izoh berib o'tadi. Uning fikricha, O'zbek ilmiy komissiyasi o'z zimmasidagi "o'zbek madaniy-ma'orifiy yuksaltirish, o'zbek osori atiqasini saqlash, sano'i nafisa ishlarini tartiblik bir yo'lg'a solish kabi buyuk-buyuk" vazifalarni ko'pini bajara olmaganligining sababi ko'p vaqtini til-imlo va maktab kitoblari masalalariga sarflaganida, qolaversa, Maorif komissarligi Ilmiy Kengashining tuzilishi jihatdan "Yevropa ruhida" bo'lgani uchun o'zbek, qozoq, turkman, tojik, qora qirg'iz bilim komissiyalari kundalik va umumiy ishlarida birlasha olmagan"ida edi. "Bularning birlasha olmaslig'ig'a ham tabiiy edi, – deb yozadi u. – Har qaysi millatning madaniy tuzilishi uning ruhiy xolatiga zo'r ta'siri bor, Turkiston ilmiy sho'rosig'a madaniy saviyalari bir-birlariga teng

bo‘lmag‘on millatlar orasida ishlash qiyin bo‘lib, moddiy va ma‘naviy kuch-quvvat bo‘lindi. ... O‘zbeklarning o‘zlariga xos bo‘lg‘on madaniyat, sano‘i nafisa (teatr va musiqa) til, adabiyot ham tarixiy masalalarida ish ko‘rish uchun “O‘zbeklarni o‘rganish qo‘mitasi” (Komitet uzbekovedeniya) tuziladur”.

XX asrning 20-yillari oxirlariga oid hujjatlardan birida esa qo‘mitasi faoliyatini yo‘lga qo‘yilishi va uning oldida turgan vazifalar xususida quyidagi jumlar keltiriladi: “O‘zbekshunoslik sohasidagi etnografiya, tarix, xalq ijodiyoti, hunarmandchilik va boshqa sohalarga oid materiallar juda ko‘p va ular o‘zining haqiqiyli va mazmuni bilan kishini hayratlantiradi. So‘nggi yillarga qadar ularni yig‘ish va ularga ishlov berish tasodifiy, xavaskorlik xususiyatiga ega bo‘ldi. Ayrim ilmiy yodgorliklar, qimmatli natijalar afsuski kam sonli mutaxassislar tomonidan amalga oshirildi, ularni ommalashtirish borasida hech kim qayg‘urmad. Oktabr inqilobidan keyin o‘zbeklar o‘z mustaqilliklariga erishish huquqini qo‘lga kiritgach, tub aholining madaniy kuchlari sovet qurilishiga, yangi chaqiriqqa astoydil kirishdi. O‘zbekistonning madaniy xodimlari zimmasiga SSSR xalqlari oilasiga kiritish uchun, uning faol a‘zosi bo‘lishi uchun aholining madaniy darajasini ko‘tarishdek mas‘uliyatli vazifa yuklatildi. Bu yerda insoniyatning gullagan makonida intellektual zahiralarni sarhisob qilish, xalq xo‘jaligi va o‘lkaning tabiatini asosli o‘rganishga kirishish zarur edi. Qolaversa, ham kiradi. Faqat ma‘lum bir yadro atrofida mustahkam birlashgan birlashma va qat‘iy rejali ilmiy-tadqiqot ishlarigina butun bir 10 yilliklarga mo‘ljallangan mas‘uliyatli ilmiy vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishni kafolatlay oladi”.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY)

Mavzuni adqiq etishda arxiv fondlari hujjatlari ilmiy adabiyotlar va davriy nashrlar materiallari bilan qiyosiy tahlil qilinib, tarixiy–qiyosiy metoddan foydalanildi. Shuningdek, manbalar va olingan ma‘lumotlar analitik metod orqali izohlab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)

Shunday qilib, sovet hokimiyati o‘zining O‘rta Osiyo xalqlarini millatlarga ajratish siyosatidan kelib chiqqan holda Maorif komissarligi tizimida vujudga keltirgan Milliy ilmiy komissiyalar kabi Akademmarkaz qoshida ham milliy chegaralanishdan so‘ng ham O‘zSSRda O‘zbekshunoslik, keyinroq Tojikiston SSRda Tojikshunoslik qo‘mitasi faoliyati ham yo‘lga qo‘yildi.

O‘zbekshunoslik qo‘mitasi tashkil etilgach, uning nizomi ham ishlab chiqilgan. Nizomga muvofiq, qo‘mita o‘zbeklar va O‘rta Osiyodagi boshqa millatlar etnografiyasi, musiqasi va lingvistikasini tizimli yig‘ish va materiallarni ilmiy o‘rganish; O‘zbek tilidagi badiiy adabiyotni yaratish masalalarini faollashtirish; O‘zbekshunoslik yacheykalarini (jamiyatlar emas) tashkil

qilish bilan shug'ullanganishi, fan sohalari bo'yicha faoliyat olib borayotgan ilmiy kadrlarni o'z atrofida birlashtirish va ularni ilmiy tadqiqotlarga jalb etishi, qo'mita tarkibiga Xalq Maorifi komissarligi hay'ati tomonidan tayinlangan rais, asosiy ish o'rnidagi, shtatdan tashqari a'zolar va maslahatchilar kiritilishi ko'zda tutilgan.

Qo'mita raisligi masalasi Akademmarkazning 2025 yilning yoziga kelib ko'rib chiqilgan. Ehtimol bunga qadar bu lavozimda Akademmarkaz raisi Abdujabborovning o'zi parallel ravishda ishlab kelgandir. 1925 yilning 6 iyunida O'zakademmarkaz raisi Abdujabborov Qozon shahridagi sobiq Sharq akademiyasiga – Gaziz Gubaydullinga telegramma yuborib, uni qo'mita raisi lavozimiga ishga taklif etgan. Gaziz Gubaydullin esa Tatariston respublikasining 5 yilligini nishonlanishi munosabati bilan 25 iyunda kela olmasligini bildirgan_. Shundan so'ng 1925 yil 14 iyunida Akademmarkaz xay'atining yig'ilishida bu lavozimga (Vadut- S.M) Maxmudovni tayinlash masalasi ko'rilib, bu taynlovni Maorif komissarligi xay'atidan so'rash to'g'risida qaror qabul qilingan. Lekin 25 iyun kungi Xalq Maorifi komissarligi Xay'ati yig'ilishida esa Akademmarkaz raisi (Abdujabborov– M.S) O'zbekshunoslik qo'mitasi raisi bo'lishi kerakligi to'g'risidagi qaror chiqarilgan. Qo'mita raisligiga loyiq ko'rilib, ishga taklif etilgan G.Gubaydullin esa tarixchi R.N. Shigabdinovning yozishicha, 1925 yilning 16 avgustidan O'zbekshunoslik qo'mitasi yig'ilishida qatnashgan.

O'zbekshunoslik qo'mitasi yig'ilishlarida Abdujabborov, V.L. Vyatkin, G.Gubaydullin, S. Ayniy, M. Yunusov, F.Rojiy, Zigni, Oxundov, Shukrullayev, Axmedjanov, G'ozzi Yunusov, Sh, Abdujabbor Narzikulov (tarixchi), O'.Islomov, Abdumumin Sattorov, S.Inoyatov, Munavvarqori Abdurashidxonov, Nazrulla Bektosh, Nazirov, Vadut Maxmudov, Sadriullin, Xoji Muin, Xaydarov, G'oibov, Nosirov, Muftizoda, Yusuf Muxamadjonov, Repnikov (kotib) kabilar faol ishtirok etib kelgan.

Shu o'rinda Po'lat Soliyev, S.Musajonov, O.Xoshimov singari ko'zga ko'ringan milliy ziyolilarning respublikada ilmiy–tadqiqot markazlarini vujudga keltirish, yerli aholi orasidan ilmiy kadrlar yetishtirish, O'rta Osiyo xalqlari tarixini ilmiy o'rganish bilan bog'liq xizmatlari beqiyos bo'lganligini ham alohida tilga olib o'tish lozim.

Shuni ham ta'kilash kerakki, bu davrdagi ilmiy muassasalarning moddiy ta'minoti holati ko'pchilik tadqiqotchi olimlarning shtatdan tashqari xizmat yuritishiga yoki turli joylarda qo'shimcha ishlashlariga to'g'ri kelgan. 1925 yilning apreli holatiga O'zakademmarkazning shtatdan tashqari tasdiqlangan xodimlari ro'yxatida quyidagi xodimlar qatorida Qalandarxonada – Mulla Qalandar xonadonida yashayotgan Sadridin Ayniy, Faxriddin Rojiiy, Abdumo'min Sattoriy, Xoji Muin Shukrullayev, G'ozzi (Olim) Yunusov, tarixchi Abdujabbor Nazriquli, Yusuf Muhammadjonov, o'qituvchi Abdumusovvar (?), V.L. Vyatkin, V.I. Popov (pedagog)larni

ko‘rish mumkin. Ko‘p o‘tmay, Abdulhamid Sulaymonov (Cho‘lpon – S.M), Vadut Mahmud, Abdurauf Fitratlarga ham Akademmarkazning shtatdan tashqari xodimi guvohnomasi berilgan. Arxiv hujjatlaridan birida xatto 1927-1928 yillarda ham O‘zSSR XMN tasarrufidagi tassaruvfidagi 20 ta ilmiy-tadqiqot muassasalari muassasasidagi jami 189 ta ish atigi 14 tasi O‘zbekshunoslik instituti (O‘zbekshunoslik qo‘mitasi nazarda tutilmoqda – S.M)ga tegishligi ko‘rishimiz mumkin.

Shunday sharoitlarda ish boshlagan qo‘mita O‘zSSR poytaxti Toshkentdan Samarqandga ko‘chirilgandan so‘ng boshqa davlat muassasa va tashkilotlari qatori ishini Samarqandda davom ettirishiga to‘g‘ri kelgan. Uning 1924-1925 yilning 2-yarim yiliga mo‘ljallangan ishlab chiqarish rejasini qaytadan tuzib chiqqan.

Qo‘mita birinchi navbatda o‘lkashunoslik va o‘zbek tili terminologiyasi muammolarini o‘rganish, qo‘mita uchun kerakli kadrlarni yetishtirish, Respublikada mavjud bo‘lgan kadrlarni, masalan Samarqanddagi O‘zbekshunoslik yacheykalari, “Nashri maorif”ning filiali, o‘lkashunoslik vazifasini bajaruvchi mahalliy tashkilotlar, to‘garak hamda maktablardagi kuchlarni jalb qilgan holda shtatdan tashqari xodimlar tarkibini shakllantirish vazifasini hal qilish lozim edi.

Bundan tashqari, rejada “Boshqa narsalarga qaraganda xalqning bu voqealarga haqiqiy munosabatini namoyon qiluvchi” xalq ijodiyoti namunalarini va “tezda yo‘qolib ketishi mumkin bo‘lgan” O‘zbekistondagi inqilobiy (birinchi navbatda inqilob va aksilinqilobiy harakatlar (O‘zbekistonda bosmachilik) tarixi bilan bog‘liq xalq og‘zaki namunalarini yig‘ishga alohida e‘tibor qaratish kerakligi_ ham alohida ko‘rsatib o‘tiladi.

1925/1926 yillarga mo‘ljallangan ishlab chiqarish rejasiga ko‘ra 1925 yilning avgust oyida qo‘mita a‘zolari tomonidan asosan Markaziy Kommunistik partiya vakili ishtirokida Oktabr inqilobi” tarixiga oid materiallar yig‘ish bo‘yicha tashkiliy komissiya tuzish, shu kunga qadar yig‘ilgan etnografik materiallarni tartibga keltirish bo‘yicha kollektor tashkillashtirib, qisqacha o‘zbeklar etnografiyasi tuzish, qo‘mita yacheykalarini tashkil etish bo‘yicha reja va yo‘riqnomalar tuzish, ularning ishini yanada kuchaytirish, Sovet ittifoqidagi boshqa o‘lkashunoslik muassasalari bilan aloqalar o‘rnatish, sentabr-oktabr oylarida esa o‘lkashunoslik s‘zdiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish kabi tashkilish ishlar bajarilishi belgilangan. 1926 yili esa avgust-oktabr oylarida esa O‘zbekiston dehqon xo‘jaliklarini o‘rganish bo‘yicha sho‘ba tashkil etish, Komstarisning qadimiy O‘zbekistonning arxeologik yodgorliklarini o‘rganish va saqlash yo‘llariga bag‘ishlangan ma‘ruzasi, etnografiyaga oid materiallar yig‘ish bo‘yicha 2 yilga mo‘ljallangan reja tuzish hamda “O‘zbekshunoslik qo‘mitasi xabarnomasi”ning birinchi sonini chiqarish rejalashtirilib, shu rejaga muvofiq, “O‘zbekiston hududidagi etnografiya, tarix,

xalq ijodiyoti, til va adabiyot va boshqa sohalarda materiallarni yig'ishda, ularni tizimlashirish, qayta ishlash, ilmiy ekspeditsiyalar tashkillashtirish, yig'ilish, konferensiyalar, s'zdlar o'tkazish bilan bog'liq ko'plab ishlarni amalga oshirgan, respublikaning turli hududlarida tarix, etnografiya, xalq ijodiyoti, aholini turmush tarzi bilan bog'liq materiallarni yig'ish bilan shug'ullangan. Jumladan, 1926 yilda Farg'ona vodiysiga etnografiya, folklor, aholini turmushi va odatlariga oid materiallar yig'ish uchun ilmiy safar tashkillashtirilgan.

Bundan tashqari, qo'mita milliy komissiyalarning Respublika ta'lim muassasalari uchun darslik va adabiyotlar tayyorlash ishini ham davom ettirgan. 1926 yiling o'zida umumiy hisobda 20 nomdagi 259 bosma varaqdan iborat 1 va 2-bosqich maktablari o'quvchi va o'qituvchilari uchun darslik, o'quv qo'llanmalar tayyorlash, til, adabiyot, arxeologiya, tarixga oid ishlarni – “O'zbek xalqi tarixi”, “O'zbek xalqi etnografiyasi”, “O'rta Osiyoni o'rganish bo'yicha bibliografik ko'rsatkich”, “Navoiy asarlari bibliografiyasi”, “Navoiy biografiyasi”, “O'zbekshunoslik yacheykalari uchun materiallar yig'ish yo'riqnomasi”, “Qadimgi yodgorliklar tarixi (surat va rasmlar bilan)”, “O'zbeklarga oid arxivlar to'plamini nashr qilish”, “O'zbekshunoslik qo'mitasi xabarnomasi”, “O'qituvchilar uchun turli fanlardan qisqa terminologik lug'at”lar shular jumlasidan edi. Faqat nashr etiladigan bu kabi ishlar endi “qat'iy markscha usul bilan yozilgan” bo'lishi kerak edi. Shuningdek, o'lkashunoslik sohasining keng targ'ib qilinishi ortidan respublikaning tabiiy resurslari, iqtisodiyoti, madaniyatini o'rganish maqsadida ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etildi, RSFSR, Ukraina, Tatariston, Boshqirdistondagi o'lkashunoslik masalalari bilan bog'liq ishlarni o'rgandi, ular bilan aloqlar o'rnatdi, o'zining joylardagi yacheykalari faoliyatini yo'lga qo'yildi. Misol uchun, 1925 yilning 12 mayida Tatariston Akademmarkazi tomonidan O'lkashunoslik loyihasi tasdiqlanib, Tatariston Xalq Maorifi komissarligi hay'ati O'zSSR O'lkashunoslik Byurosi bilan jonli aloqalarni o'rnatishga tayyorligini bildirdi. Moskvada shahridagi O'zbek Maorif instituti (inprosi)da O'zbekshunoslik kabinetini tashkil qilish va o'lkashunoslik materiallarni yig'ish maqsadida respublikaning turli viloyatlariga pionerlar otryadi kelgan. 1925 yilning 21 iyunida mazkur otryadni kuzatib kelayotgan inpros o'qituvchilari (Ivanov, Shakulova, Xenkinlar)ga guvohnoma berish va bu ishlarni olib borishlarida otryadga respublikadagi barcha xalq ta'limi bo'limlari va ilmiy muassasalar har tomonama yordam ko'rsatishlari kerakligi to'g'risida alohida qaror ham qabul qilingan.

O'zbekshunoslik qo'mitasi qoshida alohida Ilmiy-tadqiqot kabineti ham bo'lgan. Uning tarkibida “Fotolaboratoriya”, “Etnografiya va antropologiya”, “Tarix va arxeologiya”, “Lingvistika va adabiyot” bo'limlari faoliyat olib borgan.

Kabinetning “Etnografiya va antropologiya” bo‘limi asosan etnografiya yo‘nalishdagi (uy-joy turlari va xo‘jalik mashg‘ulotlari, kiyim, mashg‘ulot, ommaviy sayillar, oilaviy tadbir va yig‘inlar, o‘yinlar bilan bog‘liq) ishlarni davom ettirish, “Tarix va arxeologiya” bo‘limiga esa tarixiy qo‘lyozma asarlar, O‘rta Osiyo va O‘zbekistonning mashhur tarixiy shaxslari portretlari, asarlarini jamlash, katta bo‘lmagan arxeologik ishlarni olib borish, tarixiy yodgorliklarni ro‘yxatga olish va fiksatsiya qilish, tarixiy mavzularda ma‘ruzalar uyushtirish...” bilan bog‘liq vazifalarni bajarishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

Akademmarkazning ilmiy kotibi Repnikovning 1925 yilning sentabrida O‘zbekshunoslik qo‘mitasiga bag‘ishlangan ma‘ruzasida o‘lkashunoslik ishlari dasturi O‘zbekiston tarixi, Adabiyot va san‘at, etnografiya, o‘zbeklar turmushini o‘rganish, tabiat, bibliografiya. o‘zbekshunoslik, terminologiya bo‘yicha bibliografiya tuzishga yo‘naltirilishi, O‘zbekiston tarixni o‘rganishda O‘zbek xalqining tarixi, unga oid arxiv materiallari, O‘zbekistonning turli davrlariga doir, ayniqsa, 1917 yildan boshlab tarixiy materiallarni yig‘ish_ga e‘tibor qaratilishi kerakligi ta‘kidlab o‘tildi.

1926 yili O‘zbekshunoslik instituti (! – ta‘kid bizniki. Shu o‘rinda 1974 yili nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan tadqiqotchi B. Jabborovning ishida ham, arxiv hujjatlaridan birida ham 1926–1917 yillarda O‘zbekshunoslik qo‘mitasi emas, O‘zbekshunoslik instituti, uning bo‘limlari esa sho‘ba deb berilganiga alohida e‘tibor qaratish lozim)ning Tarix va etnografiya sho‘balari juda katta materiallar yiqqan. Bu ishlarning barchasi Qadimgi yodgorliklarni saqlash qo‘mitasi va boshqa ilmiy o‘lkashunoslik muassasalari bilan hamkorlikda olib borilgan. Qo‘mita ishida uning raisi Yunusov, f.f.d. X.Z.Zaripov, L.P.Potapovlar faol qatnashib kelgan. Misol uchun, X.Zaripov Toshkent oblasti Burchmullada, Ohangaronda Chotqol tog‘i atrofida til, adabiyot, folklor va etnografiyasiga oid materiallarni yig‘ish va o‘rganish bilan shug‘ullangan bo‘lsa, Yunusov va L.P.Potapovlar 1928 yilda Andijon oblastida qipchoqlarni kelib chiqishini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan. 1929 yilda esa etnografiya, folklor, aholini turmushi va odatlariga oid materiallar yig‘ish uchun Samarqand oblastiga ilmiy ekspeditsiya uyushtirilgan. Unda X.Zaripov, L.P.Potapov, rassom Sh.Gumarevlar ishtirok etgan”.

Ilmiy–tadqiqot kabineti va uning bo‘limlaridan tashqari O‘zbekshunoslik qo‘mitasi qoshida Markaziy O‘lkashunoslik Byurosi (MO‘B) ham tashkil etilgan. 1925 yilning 7, 24-25 iyun kunlari Markaziy O‘lkashunoslik Byurosining Samarqand shahrida o‘tkazilgan yig‘ilishida Byuroning maqsad va vazifalari, ishlari rejasi, uning tuzilishi, hamda uning sho‘balarini tashkil qilish masalasi ko‘rib chiqilgan. Byuroga barcha komissarliklar, davlat tashkilotlari va matbuot tahririyatlari O‘zakademikmarkazga o‘zlarining bittadan vakilini yuborgan. Misol uchun, Adliya

xalq komissarligidan vakil sifatida Sud ishlari bo‘limi mudiri Norbo‘tabekov, Samarqand Ijroiya qo‘mitasi nomidan komstarisi raisi Vyatkin, “Qo‘shchi” Markaziy ittifoqidan Doniyorov, Samarqand oblasti Xalq maorifi komissarligidan Sadrullin, Ichki ishlar xalq komissarligi mas‘ul kotibi Muftizoda, O‘zbekiston Kommunistik partiyasi Ijroiya qo‘mitasidan Tretyakov, Ichki savdo xalq komissarligidan S.P. Matskevich, Moliya nozirligidan Artamonov, Sog‘liqni saqlash xalq komissarligi shifokor Blagoveshenskiyni vakil sifatida tavsiya etgan. MO‘B ishida, Krilsov, Gubaydullin, Sulton-Girey, A.L. Brodskiy, B.X. Shlegel, D.I. Nechkin, M.G. Popov, Vasilyev va boshqalar ham faol ishtirok etgan.

Akademmarkazning ilmiy kotibi M.P.Repnikovga ko‘ra, Byuroning eng muhim vazifalari – O‘zbekistonning tabiiy, xo‘jalik-ekologik va maishiy shart-sharoitlarini o‘rganishdan iborat edi. ...Bu vazifalar maxsus ilmiy muassasalar, jamiyatlar va boshqa o‘lkashunoslik bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar tomonidan olib borilishi belgilangan edi. Ularga rahbarlik qilish, birlashtirish, shuningdek, o‘lkashunoslik tashkilotlarini ma‘lumot beruvchi va yo‘l ko‘rsatuvchi materiallari bilan ta‘minlashini qo‘llab-quvvatlash, Rossiya va respublikdagi o‘lkashunoslik tashkilotlari bilan aloqalar o‘rnatish, bu aloqalarni qo‘llab-quvvatlash kabi vazifalar ham O‘lkashunoslik byurosining zimmasida yuklatilgan.

Turkiston davlat va jamoat arboblardan Otajon Xoshimov ham o‘zining “Maorif va o‘qituvchi” jurnalining 1927 yil sonlaridan birida e‘lon qilgan maqolasida o‘lkani o‘rganishda ilmiy markaz idorasi ostida markazda va mahallalarda 60 ga yaqin kishilar ishlashi, Ilmiy markaz tomonidan so‘nggi bir-ikki yil ichida til ham adabiyot, tarix va etnografiya sohasida ham ancha yutuqlar qo‘lga kiritilganini ta‘kidlab shunday yozadi: “O‘zbek tarixi to‘g‘risida ham ancha materiallar to‘plandi va to‘planmoqda. Bulardan yaqinda tayyor bo‘lib nashr etiladurgonlari: “O‘zbek tarixiga materiallar”, o‘zbekcha yozilgan qo‘lyozma “Tarixi Abdullayi Balxiy”, o‘zbekcha yozilgan qo‘lyozma “Jome‘ ut tavorix”. Bu kitoblarning o‘zbekchada yozilganini bizning bilganimizcha hech qayerda yo‘q, ko‘rilmagan, Ovro‘pa tillarida faqat forsiychasig‘ina bor), “Tarixi tarokima” va boshqa tarixiy kitoblar. Uch yil ichida “O‘zbeklar antropologiyasi” degan uch jild kitob tayyor bo‘ldi. Bu yil bir necha jildi chiqadi. Yozg‘uchisi duxtur L.V.Oshanin. Bu kitob ilmiy markaz tomonidan antropologik ekspeditsiya materiallariga asosan yozildi. Yaqinda V.L.Vyatkinning “Afrosiyob yoki eski Samarqand” degan arxeologiyaga oid kitobi chiqadi. O‘zbek urug‘larig‘a oid materiallar tartibga solinmoqda. Mana bular o‘zbeklarning tarixi va etnografiyasig‘a oid asosiy materiallar. Bu butun materiallar O‘zbekistonda o‘lkani o‘rganish va ilmiy ishda ancha muvaffaqiyat borlig‘ini ko‘rsatdi”.

1928 yilning oxirlarida “O‘zbekistondagi ilmiy tadqiqot ishlari amalda butunlay rejadan tashqarida, umumiy rejaga bog‘lanmagan, turli muassasalarning separativ ishlari xo‘jaliksiz,

ishlab chiqarishga jalb etilmasgan holda, umuman yetarlicha katta harajatlar sarflanib amalga oshirilmoqda. Yagona rejaning mavjud emasligi ishlarni murakablashtirmoqda. Bu vaziyatdan chiqishning yagona yo‘li reja birligi va muvofiqlashtiruvchi harakatdir. Bundan tashqari moliyaviy mablag‘larni samarali ishlatish zarur. Buning uchun O‘zbekiston Davlat Ilmiy tadqiqot instituti (O‘zDITI) ni vujudga keltirish lozim”ligi e‘tiborga olinib, uni vujudga keltirishga qaror qilingan. 1928 yilning 11 dekabrda O‘z XMNligi Hay‘atining yig‘ilishida O‘zDITIning nizomi tasdiqlangan. O‘DITI dastlabki yacheykasi Oliy Pedagogika instituti (VPI) professurasidan tashkil topgan.

O‘zSSR XMNlining qoshidagi Ilmiy muassasalar bo‘limi bundan buyon ilmiy tadqiqot ishlarini ishlab o‘zi chiqarmay, yordamchi muassasalari (O‘zbekshunoslik qo‘mitasi va qo‘mita qoshida tuzilgan Ilmiy tadqiqot kabineti)i barcha asbob uskuna va materiallari, ularning budjeti barcha hisob kitoblari bilan Institut tarkibidagi ikki bo‘limidan biri – Ijtimoiy fanlar bo‘limiga o‘tkazilgan. YA’ni O‘zbekshunoslik qo‘mitasi bundan so‘ng O‘zDITIning tarkibida Ijtimoiy fanlar bo‘limi nomi bilan o‘zining ilmiy tadqiqotchilik faoliyatini davom ettirgan.

Ijtimoiy fanlar bo‘limi tarkibida “Lingvistika va adabiyot”, “Tarix va iqtisodiyot”, “Xalqshunoslik-antropologiya”, “Etnografiya” kafedralari tashkil etilgan. Biroq “Ijtimoiy fanlar bo‘limi deyarli barcha ishlarini istinosiz tarzda markscha ko‘rsatmalar asosida amalga oshirishi” belgilab qo‘yilgan. Biroq O‘DITI tarkibidagi Lingvistika va Tarix kafedralari esa birinchi yilda (1928 yilda-S.M) qisman ishlagan, bu kafedralarning rasmiylashishi 1929-1930 yillarda amalga oshishi nazarda tutilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS)

Shunday qilib, O‘zbek milliy ilmiy komissiyasi negizida vujudga kelgan O‘zbekshunoslik qo‘mitasi 1924 yildan to 1928 yili O‘zbekiston Davlat Ilmiy tadqiqot instituti tashkil etilguniga qadar, ya’ni 5 yil faoliyat olib bordi. Bu davr mobaynida jamiyatning boshqa sohalari bilan bir qatorda tarixiy bilimlarni rivojlantirish borasida sezilarli yutuqlarni qo‘lga kiritdi. Garchi qo‘mitaning asosiy vazifalari yil sayin ijtimoiy fanlarning obyektiv qonuniyatlarini o‘rganishga emas, balki sotsialistik reja asosidagi o‘lkashunoslik muammolari doirasida xalq xo‘jaligining turli sohalari bilan bog‘liq holda o‘rganishga moslashtirib borilgan bo‘lsada, ushbu muassasa ma’lum darajada O‘zbek ilmiy komissiyasining tarixiy-ilmiy yo‘nalishdagi ishlarini davom ettirishga muvaffaq bo‘ldi. Qo‘mitada O‘rta Osiyoning o‘tmishini tadqiq etib kelayotgan, haqiqiy ilm kishilari, o‘lkaning ko‘zga ko‘ringan ziyolilari faoliyatini davom ettirish imkoniga ega bo‘ldilar. Ularning sa’i-harakatlari bilan O‘zbekistonning tarixi, arxeologiyasi, etnografiyasiga doir ko‘plab yangi ma’lumotlar yig‘ildi, ilmiy natijalarga erishildi. Bularning barchasi O‘zbekiston tarix fanining keyingi rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etdi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. O‘zR MDA. R-34-fond. 1-ro‘yxat. 2630-yig‘majild. 71-varaq.
2. Джабббаров Б. Возникновение и развитие исторического краеведения в Советском Узбекистане. Дисс на соис канд ист наук. Ташкент, 1974.
*Bu haqda qarang: Madyarov S. N. The first Uzbek Scientific Commission and The Faktions of National Intellectuals in The fieled of fieled of education // Epra international Journal of Sosio-Ekonomik and Environmental Outlook (SEEO). Volume 8. October 2021. Rr. 295-304
3. O‘zR MDA. R– 34. 1-ro‘yxat. 2624-yig‘majild. 189-varaq.
4. Said Ahmad Nazir o‘g‘li. O‘zbekistonda ilmiy tadqiq ishlari va uning inkishofi (Arab alifbosida) // Qizil O‘zbekiston. 1924 yil, №1.
5. O‘zR MA. R-94-fond.5-ro‘yxat. 579-yig‘majild. 49-50, 51-varaqlar.
6. O‘zR MDA. R-94-fond. 1-ro‘yxat 36-yig‘majild. 146, 186-varaqlar.
7. Shigabdinov R. Uzbekistanskaya intellektualnaya elita: vtoraya polovina 20-godov XX veka. Ch.1 // IATS MGU. 2008, 7 sentabr.
8. O‘zR Milliy arxivi. R-94-fond.1-ro‘yxat. 261-yig‘majild. 5,41-varaqlar.
9. O‘zR Milliy arxivi. R.95-fond. 1-ro‘yxat.254-yig‘majild. 112-varaq.
10. O‘zR MDA. R-34-fond. 1-ro‘yxat. 2626-yig‘majild. 22-24 -varaqlar.
11. Xoshimov Otajon. Turkiston davlat va jamoat arboblardan // Maorif va o‘qituvchi (arab alifbosida). 1927. №11.
12. O‘zMA. R.94- fond 5- ro‘yxat. 191- yig‘majild. 78, 93-varaqlar.